



## INSONNING ESTETIK TAFAKKURI

*Ro‘zimatova Shahloxon Shuxrat qizi<sup>1</sup>,*

*Umarova Farida Saidikramovna<sup>2</sup>,*

*Elmurotova Dilnoza Baxtiyorovna<sup>3</sup>*

*1-son davolash fakulteti 110”A”guruh talabasi<sup>1</sup>*

*Falsafa fanlar nomzodi, dotsent<sup>2</sup>, PhD dotsent<sup>3</sup>*

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti*

**Annotatsiya:** *Ishda falsafaning muhim bo‘limi estetika ko‘rib chiqilgan bo‘lib go‘zallik, did, san‘at va estetik qadriyatlarning inson tafakkuri va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni tahlil etiladi. Estetik idrokning shakllanishi, uning madaniyat, axloq va ong bilan aloqasi, shuningdek, zamonaviy estetik qarashlar mazmunan yoritiladi, estetikaning nazariy asoslari bilan birga, uning kundalik hayotdagi ahamiyati batafsil ko‘rib chiqilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *estetika, nafosat, go‘zallik, xunuklik, san‘at, hissiyot, badiiy asar, nafosat, donishmand, mutanosiblik, tashqi qiyofasi, xulq, fel-atvor, mehnatsevarlik, ezgulik.*

Estetika – nafosatshunoslik, go‘zallik haqida bilim beruvchi fan bo‘lib, falsafaning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Biz atrofdagi har qanday go‘zalliklardan - xoh u gul bo‘lsin, xoh u kapalak ulardan zavq olishimiz, badiiy asar qahramonlarining kechinmalarini his qilishimiz – bularning har biri estetikadir. Estetika yunoncha “his”, “tuyg‘u” degan ma‘nolarni bildiradi. Uni birinchi bo‘lib nemis faylasufi Aleksandr Baumgarten o‘z asarlarida qo‘llagan. Estetika atamasiga “nafislik”, “nafosat” so‘zlari asos hisoblanadi. Estetika kategoriyalari orasida ham nafosat tushunchasi alohida o‘rin egallaydi. Nafosatning asosiy xususiyati esa go‘zallik hisoblanadi. Go‘zallik zohiriy va botiniy ma‘noga ega.



Donishmandlar tashqi va ichki go'zallik mutanosibligiga alohida ahamiyat berganlar. Ya'ni, kishining tashqi qiyofasi bilan birga uning botiniy olami - xulqi, fel-atvori, mehnatsevarligi, ezgulikka intilishi va boshqa jihatlari go'zallik xislatlari bilan muvofiq, uyg'un bo'lsa, ular mukammal go'zallik sifatini oladi. Estetikaning mavzusi faqat go'zallik bo'lib qolmasdan, ulug'vorlik, oliyanoblik, fojaviylik, xunuklik, pastkashlik, kulgililik, tubanlik va boshqa shu kabi kategoriyalarni ham o'rganadigan fandır.

Estetik his-tuyg'u - insonni qurshab turgan muhitdagi ruhiy tuyg'u paydo qiluvchi go'zallik va xunuklikni, ulug'vorlik va pastkashlini, fojaviylik va kulgililikni idrok etish va baholash qobiliyatidir.

Estetik ehtiyoj - ezgulikka, go'zallikka intilishdir. Bu ehtiyoj mehnat, san'at, axloqiy munosabatlardagi go'zallikni taqozo etadi. Insonning jamiki faoliyat qirralari borliqqa estetik munosabat orqali namoyon bo'ladi.

Insonning estetik tafakkuri shakllanib, rivojlanib, takomillashib borgani sari uning ijtimoiy-ruhiy, mafkuraviy-g'oyaviy, siyosiy-ma'naviy intilishlari ham tobora tiniqlashib boradi. Chunki estetik tafakkur insonning maqsad-manfaatlarini estetik-badiiy vositalarda nazariy asoslab beradi, estetik ma'daniyat va badiiy amaliyot asoslarini o'rganish, tahlil qilish bilan boyitadi, estetik nazariyalarning falsafiy asoslarini ochib beradi, voqelikni estetik idrok etish jarayonlarini ko'rsatib beradi. Shunday qilib, estetika fani voqelikni estetik mushohada qilish va badiiy ijod jarayonlarining uzviy mutanosibligini namoyon qiladi va ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, estetika - nafosat olami, san'at va badily ijod jarayonlari qonuniyatlarini his-tuyg'u, sezish-idrok qilish vositalari orqali o'rganadigan va o'rgatadigan fandır.

Estetik g'oyalar dastavval qadimgi Sharq o'lkalarida, jumladan, Misr, Mesopotamiya, Bobil, Hindiston, Xitoy, Eron va Turon mamlakatlarida vujudga kelgan. Qadimgi yunon olimi Demokrit birinchi bo'lib san'at haqida fikr yuritib, u tabiatga taqlid asosida shakllangan deb ta'kidlagan. Aflotun fikricha, nafosat



manbaini avvalo g'oyalar tashkil etadi va go'zallik mohiyatini his-tuyg'u bilan emas, balki aql-idrok bilan anglash mumkin. Qadimgi estetika tafakkurida materialistik yo'nalishni Geraklit boshlab bergan edi. U nafosat xossalari moddiy dunyoning o'zidan kelib chiqqanligi va nafosatning nisbiyligi g'oyasini ilgari surgan.

O'rta asrlarda musulmon sharqida bu g'oyalar takomiliga yetkazilib, estetika yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, Qoraxoniylar, Somoniylar, G'aznaviylar davrida dunyoviy ilm-fan ilohiyot bilan bog'liq holda o'qitilib, tavhid - Ollohni bilish, uning sifatlarini anglash, ya'ni: «Olloh go'zal, u yaratgan narsalar ham go'zal, u go'zallikni yoqtiradi, shu bois komil insonning xatti-harakatlari ham go'zal bo'lishi, inson go'zallikka go'zallik bilan javob berishi kerak», degan fikr mavjud edi. Umuman, Sharq xalqlari qadimdan go'zallikni jamiyat taraqqiyotining va insoniy munosabatlar rivojining mezoni, deb bilganlar. Odamlarda chinakam insoniy-axloqiy shakllantirish orqali ijtimoiy taraqqiyotning ongliligiga erishish mumkin, deb hisoblaganlar. Masalan, Abu Ali ibn Sino hayoni — insonning abadiy go'zalligi va latofatiga. hayosiz yuzni esa jonsiz jasadga o'xshatadi. Haqiqatan ham, sharm-hayo, or-nomus borjoyda go'zallik tantana qiladi. Aytish mumkinki, tashqi go'zallik — bu shakldir, hodisadir. Ichki go'zallik — mazmundir, mohiyatdir. Mazmun va mohiyat shakl va hodisani belgilaydi. Mazmun birlamchi va belgilovchi, shakl esa hamma vaqt ikkilamchidir. Abu Rayhon Beruniy tashqi go'zallik, qiyofadagi jamol — bular ikkovi ham yoqimli bo'lishi kerakligini, odamlar o'zaro uchrashganlarida ushbu go'zal jamolni ko'rishga rag'bat qilishlarini, lekin shakl chiroyi ona qornida ato qilinishi, uni o'zgartirish hech bir zotning qo'lidan kelmasligini aytadi. Ammo xulq-atvorga kelsak, uni insonning axloq kitoblarida aytilganidek davolab, tarbiyalab, go'zal-pokiza tutib, yomon hollarga tushirmaslik mumkinligini ta'kidlaydi. Sharq Uyg'onish davri ma'rifati va madaniyati haqida so'z borganda, uni Islom dini bilan uzviy bog'liq ekanligini e'tirof etish kerak. Qur'oni Karim va hadisi shariflar Islom madaniyati va



estetikasining manbaidir. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy «AI-adab al-mufrad» («Odoh durdonalari») asarida inson xulqi go'zalligi haqida bunday hadislarni keltirgan: Rasululloh: «Yaxshilik — axloqning chiroyli bo'lishi, gunoh esa ko'nglingda g'ashlik paydo boladigan ishni qilishdadir. Uni odamlar bilib qolishini xohlamaydigan bo'lsang, mana shu ishni qilmog'ing gunohdir», dedilar. «Odob durdonalari»da axloqiy go'zallik haqida yana bunday hadislarni o'qiyimiz: Rasululloh: «Sizlarning yaxshilaringiz — axloqi yoqimli bo'lganlaringizdir», — der edilar. Shu asarda yana ko'ngil sahiyligi haqida hunday deyiladi: «Boylik — molning ko'pligi emas, balki ruhning boyligidir». Shuningdek. Qur'oni Karimda yana: «Tangri sizlarning tashqi ko'rinishlaringiz yoki mol-u dunyolaringizga emas, balki didlaringizga, ishlaringizga qarab baho beradi», deb ta'kidlanadi.

Yangi davr estetikasi rivojiga Byork, D.Yum, I.Kant va boshqalar o'z hissalarini qo'shdilar. Bu davr estetikasida ham sharq faylasuflari g'oyalari asos bo'lib xizmat qildi. Masalan, Kantning go'zallik haqidagi mashhur 4 tamoyilidan 3 tasi sharq faylasuflari nazariyalari asosiga qurilgan. Mazkur 3 tamoyil — go'zallikning beg'araz manfaatsiz munosabatga asoslanganligi; uning zaruratga aylangan muhabbatning ob'yekti ekanligi (G'azoliy); go'zallikni oddiy mantiqiy yondashuv orqali bilishimiz mumkin emasligi (Forobiy) Kantni, go'zallik biz uchun o'zini maqsad shaklida emas, maqsadga muvofiqlik shaklida namoyon etadi degan 4 tamoyilni yaratishga olib keldi. Kantdan so'ng nemis ratsional Estetikasida Shiller, Shelling, Gegel nazariyalarining Estetika taraqqiyoti uchun ahamiyati katta bo'ldi.

Eng yangi davr Estetikasida, Z.Freyd, ayniqsa, K.Yung ta'limotida san'at asari va san'atkorning o'zaro munosabatlarini ruhiy tiplar asosida o'rganilishi olg'a tashlangan yangi qadam bo'ldi. Hozirgi Estetikaning miqyosiy lashuv jarayonida texnika, tabiat va turmush Estetikasiga ham jiddiy e'tibor berilmoqda. Xulqiy go'zallik muammosi yanada muhim o'rin egallay boshladi.

Xulosa: Estetika — bu insonning go'zallikka bo'lgan ichki ehtiyoji, san'at orqali his etilgan ilhom va tafakkurning go'zal uyg'unligidir. U nafaqat san'at



asarlarni tushunish va baholash, balki insoniyatning ma'naviy dunyosini boyitish, estetik zavqni tarbiyalash va hayotga go'zallik prizmasi orqali qarashga undaydi. Tarixiy taraqqiyot davomida estetik qarashlar jamiyat, madaniyat va falsafaning o'zgarishlari bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanib borgan. Bugungi kunda estetika insonning dunyoni anglashida, axloqiy mezonlarida va ijodiy tafakkurida muhim o'rin tutmoqda. Shu bois, estetikani chuqur o'rganish va uni hayotga tadbiiq etish — har bir ongli shaxsning intellektual va ma'naviy kamolotiga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Аристотель. Поэтика. – М.: Искусство, 1978.
2. Платон. Государство. – М.: Наука, 1994.
3. Гегель Г.В.Ф. Лекции по эстетике. В 2 т. – М.: Искусство, 1971.
4. Кант И. Критика способности суждения. – М.: Наука, 1994.
5. Шеллинг Ф. Философия искусства. – СПб.: Наука, 1999.
6. Элмуротова Д.Б., Элмуратов Э.Б. Исследование и совершенствование техники и технологии по освоению скважин в сложных горно-геологических условиях на месторождениях Республики Узбекистан // Лучшие интеллектуальные исследования, Ч-13, Т.5, Январь-2024, С.11-23, Россия. <http://web-journal.ru/index.php/journal/issue/view/89>
7. Elmurotova D.B., Sayfullayeva D.I., Isroilova Sh.A. Terms of medical information system, World Bulletin of Public Health (WBPH), V.34, May, P.91-92, 2024 ISSN: 2749-3644, Berlin. <https://www.scholarexpress.net>
8. Elmurotova D.B, Majlimov F.B., Zuparov I.B., Kayumova K.S., Xudoyberdiyev B.A. A modern approach to hand hygiene in medicine // European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA), V.5 N.05, May 2024 ISSN: 2660-5589, P.51-53, Spain. <https://www.scholarzest.com>
9. Elmurotova D., Arzikulov F., Egamov S., Isroilov U. Organization of direct memory access // Intent Research Scientific Journal-(IRSJ), ISSN (E): 2980-4612,



- V.3, Is.10, October – 2024, P. 31-38., Philippines,  
<https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/345>
10. Elmurotova D., Arzikulov F., Izzatullayev I., Olimov A., Abdurahmonov J. The role of remote diagnostics in medicine // World Bulletin of Public Health (WBPH), V.39, October 2024, ISSN:2749-3644, P.102-105. Germany,  
<https://scholarexpress.net/index.php/wbph/article/view/4664>
11. Elmurotova D., Fayziyeva N.A., Urmanbekova D.S., Bozorov E.H. Implementation of the method of teaching x-ray therapy in higher educational institutions // **Web of Teachers: Inderscience Research**, V.2, Issue 10, October-2024, ISSN (E):2938-379X, P.18-23. Spain.  
<https://webofjournals.com/index.php/1/article/view/1868>
12. Elmurotova D.B., Esanov Sh.Sh., Abduraxmonov S.A., Ulug'berdiyev A.Sh., Umarov J.S. Medical device reliability and measuring instrument specifications // Eurasian Journal of Engineering and Technology, EJET, V.34, October-7, 2024, ISSN: (E) 2795-7640, P.10-13, Belgium. <https://geniusjournals.org/index.php/ejet>
13. Shodiev A.A., Mussaeva M.A., Elmurotova D.B. Magnetic resistance and mobility of carriers of HTSC – YBCO tapes irradiated with 5 MeV electrons // Eurasian Journal of Physics, Chemistry and Mathematics, EJPCM, V.35, October-26, 2024, ISSN: 2795-7667, P.25-33, Belgium.  
<https://geniusjournals.org/index.php/ejpcm/article/view/6393>
14. Elmurotova D.B., Fayziyeva N.A., Odilova N.J. Properties of electron and neutron therapy // Web of Medicine: Journal of medicine, practice and nursing, V.2, Issue 10, October-2024, ISSN (E): 2938-3765, P.137-141, Spain.
15. Elmurotova D.B., Yoqubboyeva E.Z., Orifqulova M.F., Imanova L.N. Application of computer technologies in medicine // Western European Journal of Medicine and Medical Science, V.2, Issue 11, ISSN (E): 2942-1918, November-2024, P.1-12. Germany. <https://westerneuropeanstudies.com/index.php/3>